



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 12-iyun

197-10-0-F/25

Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 10-iyundagi 193-10-0-F/25-sonli farmoyishiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 12, 14 va 23-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2025-yil 7-may kuni tibbiyot sohasidagi islohotlarning navbatdagi bosqichida turgan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishining 23-sonli topshiriqlar bayonida berilgan chora-tadbirlar ijrosini ta‘minlash maqsadida, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 4-iyundagi VII-14-72-10-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq, viloyat hokimi o‘rinbosari O.Sultanbekovning bildirgisini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan,

1. Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 10-iyundagi 193-10-0-F/25-sonli farmoyishiga quyidagicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

a) farmoyishning 1-bandi quyidagicha tahrir etilsin (o‘qilsin):

“1. Viloyat mahalliy byudjetining 2025-yil I-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan Yangiyo‘l shahrida sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modelini tajriba-sinov tariqasida joriy qilish loyihasi doirasida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirish uchun:

- Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjetiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi 185-sonli qaroriga asosan, Yangiyo‘l shahar tibbiyot birlashmasi uchun axborot kommunikatsiya jihozlari va tarmoq qurilmalari xarid qilish maqsadida 1 433,5 mln. (bir milliard to‘rt yuz o‘ttiz uch million besh yuz ming) so‘m;

- Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” DUKga Yangiyo‘l shahar tibbiyot birlashmasi tarkibidagi bino va inshootlarni joriy ta‘mirlash uchun 8 566,5 mln. (sakkiz milliard besh yuz oltmish olti million besh yuz ming) so‘m jami 10 000,0 mln.(o‘n milliard) so‘m mablag‘ ajratilsin.”

b). farmoyishning 2-bandi ikkinchi xat boshisi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

2. Mazkur farmoyish ijrosini ta’minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari O.Tursunov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev